

BARQAROR TARAQQIYOT YO‘LIDA KO‘P TOMONLAMA HAMKORLIKNI MUSTAHKAMLASHGA QARATILGAN IZCHIL TASHQI SIYOSATNING MUHIM BOSQICHI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpinning taklifiga binoan 30-avgust – 3-sentabr kunlari rasmiy tashrif bilan ushbu mamlakatda bo‘ldi.

Davlatimiz rahbari Pekin shahriga rasmiy tashrif doirasida 3-sentabr kuni Tyananmen maydonida Ikkinchi jahon urushidagi G‘alabaning 80 yilligiga bag‘ishlangan tantanali harbiy paradda ishtirok etdi.

Tadbirda yigirmadan ortiq davlat rahbarlari va vakillari, jumladan, Rossiya, Belarus, Ozarbayjon, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Mo‘g‘uliston, Tojikiston, Turkmaniston, Eron, Vyetnam, Misr va boshqa davlatlar yetakchilari ham qatnashdi.

XXR Raisi Si Szinpin o‘z nuqtida bugungi sharoitda tarixiy xotirani asrab-avaylash, tinchlikni saqlash va adolatni ta‘minlash muhimligini ta’kidladi.

Paradda Xitoy xalq ozodlik armiyasining 45 ta bo‘linmasi ishtirok etdi. Xitoy mudofaa sanoati tomonidan ishlab chiqarilgan raketa tizimlari, tanklar, aviatsiya texnikasi va uchuvchisiz uchish apparatlarining eng so‘nggi namunalari namoyish etildi.

Bunday paradlar 1949-yildan buyon Pekinda o‘tkazib kelinadi, qurolli kuchlarning so‘nggi katta ko‘rigi esa 2019-yil 1-oktabrda bo‘lib o‘tgan va unda 15 mingga yaqin ishtirokchi qatnashgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Pekin shahridagi tantanali tadbirlardagi ishtiroki mamlakatimizning xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik va o‘zaro anglashuvni mustahkamlash, tinchlik, barqaror taraqqiyot va farovonlik yo‘lida mintaqaviy va global darajada konstruktiv muloqotni rivojlantirishga qaratilgan izchil tashqi siyosatining navbatdagi tasdig‘i bo‘ldi.

Umuman olganda, Prezident Shavkat Mirziyoyevning Xitoy Xalq Respublikasiga rasmiy tashrifi har tomonlama samarali bo‘ldi.

Davlatimiz rahbari 31-avgust kuni rafiqasi bilan birga Tyanszin shahridagi “Meyszyan” kongress markazida Shanxay hamkorlik tashkiloti sammitining norasmiy tadbirlarida ishtirok etdi.

Bugungi zamon turli ziddiyatlar, nizo va beqarorliklar to‘lqini bilan kechmoqda. Bir joyda mojarolar, boshqa joyda iqtisodiy tanazzul, yana bir nuqtada terrorizm va xavfsizlikka tahdid kuchaygan.

Shunday murakkab vaziyatda xalqlar va davlatlarni birlashtirish, ishonch va hamkorlikni kuchaytirish asrimizning siyosiy kun tartibida eng muhim vazifaga aylandi.

Tyanszin shahrida 1-sentabr kuni o‘tgan Shanxay hamkorlik tashkiloti Davlat rahbarlari kengashi majlisi hamda “SHHT plyus” sammiti va undagi muhokamalar butun dunyo e‘tiborida bo‘ldi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning nutqi esa nafaqat O‘zbekiston, balki butun mintaq uchun dolzarb g‘oya va takliflarga boy bo‘ldi.

Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, oldindan bashorat qilib bo‘lmaydigan xalqaro vaziyat hukm surayotgan sharoitda SHHT jahonda barqaror va adolatli tartibotni ta‘minlashning mustahkam tayanchlaridan biridir. Buning o‘z-yiqoq tashkilotning strategik o‘rni va istiqbolini ko‘rsatadi.

2-sentabr kuni Pekin shahrida Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpin bilan rasmiy delegatsiyalar ishtirokida muzokaralar bo‘lib o‘tdi. Uchrashuv yakunida amaliy hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha ikki tomonlama hujjatlarning salmoqli to‘plami imzolandi.

Shuningdek, Prezidentimiz Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin bilan uchrashib, ikki tomonlama hamkorlikning dolzarb masalalarini muhokama qildi.

Davlatimiz rahbari Xitoy Bosh vaziri Li Syan, xorijiy delegatsiyalar rahbarlari va ishbilamon doiralari vakillari bilan ham samarali uchrashuvlar o‘tkazdi.

Shu bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xitoy Xalq Respublikasiga rasmiy tashrifi yakunlandi.

O‘za

O‘ZBEKISTON PREZIDENTINING XITOYGA TASHRIFI: QIZG‘IN DASTUR, MUNOSABATLARNING YANGI UFQLARI

Xorijiy ekspert doiralari vakillari O‘zbekiston yetakchisining yangi tashabbuslari haqida

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xitoyga rasmiy tashrifi qizg‘in va serqirra dasturi bilan ajralib turadigan joriy siyosiy mavsumning eng muhim voqealaridan biriga aylandi. O‘zbekiston yetakchisi tashrif doirasida Shanxay hamkorlik tashkilotiga a‘zo davlatlar Davlat rahbarlari kengashi majlisida, shuningdek, “SHHT plyus” formatidagi yig‘ilishda ishtirok etdi, unda mintaqaviy hamkorlikni kengaytirish istiqbollari muhokama qilindi.

Oliy darajadagi muzokaralar hamda Xitoy ishbilamon doiralari vakillari bilan iqtisodiy va sarmoyaviy hamkorlikni chuqurlashtirishga qaratilgan ikki tomonlama uchrashuvlar ham bundan kam ahmiyat kasb etmadi. Bundan tashqari, O‘zbekiston Prezidenti Ikkinchi jahon urushidagi G‘alabaning 80 yilligiga bag‘ishlangan tantanali harbiy paradda ishtirok etgani tashrifga alohida ramziy ma‘no baxsh etdi.

Tashrifning barcha yo‘nalishlari bo‘yicha samarali muzokaralar olib borildi, Toshkent va Pekin o‘rtasidagi ishonch va strategik hamkorlik mustahkamlandi.

Bo‘lib o‘tgan tadbirlar natijalari, ekspertlar ta’kidlaganidek, SHHT doirasidagi ko‘p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish,



O‘zbekiston — Xitoy sherikligini kengaytirish, ikki davlat o‘rtasidagi madaniy-gumanitar aloqalarni mustahkamlashga salmoqli hissa qo‘shadi.

O‘zbekiston Markaziy Osiyo davlatlari yetakchilaridan biri va SHHT doirasidagi jarayonlarning faol ishtirokchisi, shuningdek, Xitoyning ishonchli hamkori bo‘lgan sharoitda tashrif natijalari alohida ahamiyatga ega bo‘lib, ekspertlar hamjamiyati tomonidan ijobiy baholanmoqda.

Davomi 2-beta

“YASHIL” RIVOJLANISH MODELIGA O‘TISH USTUVOR VAZIFAMIZDIR

Yaqinda ijtimoiy tarmoqlarda AI-80 benzinini birja savdolari orqali sotish to‘xtatilgani haqida xabar tarqaldi. “O‘zbekneftgaz” AJ xabariga ko‘ra, aholining bu mahsulotga talabini qoplash maqsadida AI-92 rumumidagi benzinni birja savdolariga chiqarish hajmi oshirildi. Shu vaqtga qadar ming tonna AI-92 benzini savdolarga qo‘yilgan bo‘lsa, bugun bu ko‘rsatkich 1720 tonnani tashkil etmoqda. Ichki bozor talabidan kelib chiqib, mazkur miqdorni oshirish imkoniyati mavjud.

Shu o‘rinda AI-80 benzinidan nega voz kechildi degan savol tug‘ilishi tabiiy. Mutaxassislar AI-80 markali benzinning sifat xalqaro standartlarga javob bermasligi, undan foydalanayotgan texnika vositalari atmosferaga me‘yoriydan ortiq zararli tashlama chiqarayotganini ta’kidlab keladi. Qolaversa, uning avtomobillar texnik

holatiga yetkazayotgan zarari ham katta ekan ta’kidlanadi.

Rivojlangan davlatlar ushbu benzin markasidan allaqachon voz kechgan. Endi mamlakatimizda ham bu loyiha amalga oshirilishi natijasida havoga chiqarilayotgan zararli gazlarni muayyan miqdorda kamaytirishga erishiladi.

Davomi 2-beta

Yangi tizim amalda

UY-JOYGA EGALIK HUQUQI MILLIONLAB OILALAR TAQDIRIGA DAXLDOR TASHABBUS

Mustaqilligimizning 34 yillik bayrami shukuh kechib yurgan shu kunlarda, beixtiyor ortga bir nazar tashlaymiz. “Nimalarga erishdigu, nimalarni boy berdik?”, mazmunidagi savollar ko‘pchiligimizning ko‘nglimizdan kechishi tabiiy.

So‘nggi to‘qqiz yilda tom ma’noda katta o‘zgarish va islohotlarga guvoh bo‘ldik. Rivojlanish endilikda faqatgina poytaxtda, shaharlarimizdagina emas, olis qishloqlar va chekka ovullar manzarasida ham bo‘y ko‘rsatmoqda. Islohotlar odamlar turmush

tarzini tom ma’noda o‘zgartirishga, farovon va xotirjam hayot kechirishlari uchun amalga oshirilayotganini yana bir bor e’tirof etishni joiz deb bildik.

Davomi 4-beta

Avgust sarhisobi

BUYUK TARAQQIYOTNING KATTA ZAMINI

YOZNING SO‘NGGI OYIDAGI ORTGA QAYTMAS ISLOHOTLARGA BIR NAZAR

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning avgust oyidagi faoliyatiga nazar tashlasak, qisqa muddatda O‘zbekiston tarixiga zarhal harflar bilan yoziladigan voqealar yuz berganiga guvoh bo‘lamiz.



Yangi O‘zbekistonning xalqaro nufuzli tadbirlardagi ishtiroki, qo‘shni va rivojlangan mamlakatlar bilan manfaatli, teng hamkorlik aloqalari, sohalaridagi yangilanish va o‘zgarishlar, istiqlol shodiyonalarini ko‘rib, 34 yil oldin ayni shu pallalarda o‘z mustaqilligini e‘lon qilgan davlatning yuksalgan qiyofasini ko‘rasiz. Ta’bir joiz bo‘lsa, bir paytlar tetapoya qilgan mamlakat bugun Uchinchi Rennans sari shaxdam odimlayapti. Albatta, bu natijaga Prezidentimizning hayotiy tashabbuslari, oqilona siyosati, azmu shijoati, xalqimizning tinimsiz mehnati, mas’ullarning sa’y-harakati bilan erishyapmiz.

“Bir daraxtdan bog‘ bo‘lmas”, deganlaridek, davlatlar ham yolg‘iz rivojlana olmaydi. O‘zbekiston taraqqiyotida ham xalqaro tashkilotlar, qo‘shni davlatlar, qardosh yurtlar, rivojlangan mamlakatlar bilan o‘zaro manfaatli, teng imkoniyatlarga asoslangan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy, savdo-sotiq aloqalari mustahkamlanib, kengayib borishi muhim o‘rin tutadi. Shu bois, davlatimiz rahbari xalqaro hamkorlikka alohida e’tibor qaratadi.

Avgust oyi bu borada calmoqli bo‘ldi.

Prezidentimiz 4-5-avgust kunlari BMTning Dengizga chiqish imkoni bo‘lmagan rivojlanayotgan mamlakatlar bo‘yicha uchinchi konferensiyasi tadbirlarida ishtirok etish uchun amaliy tashrif bilan Turkmanistonga bordi.

Davlatimiz rahbari tashrif doirasida Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yetinchi Maslahat uchrashuviga tayyorgarlik ko‘rish masalalariga bag‘ishlangan tadbirda ham ishtirok etdi.

Konferensiyada ko‘rilgan masalalar, belgilangan reja-maqсадlar O‘zbekiston uchun juda muhim. Sababi, dunyoda to‘g‘ridan to‘g‘ri dengizga chiqish imkoniyati bo‘lmagan 32 davlat, jumladan, O‘zbekiston ham bor. Mamlakatimiz dunyoda okeanga chiqish uchun kamida ikki davlat hududidan o‘tishi kerak bo‘lgan bor-yo‘g‘i ikki davlatdan biri. Yurtimizning to‘g‘ridan to‘g‘ri arzon dengiz transportidan foydalana olmasligi import mahsulotlarning qimmat kirib kelishi, eksport tovarlarning raqobatbardoshligiga salbiy ta’sir o‘tkazadi. Bu esa iqtisodiyotimiz yuksalishi uchun eng katta to‘siqlardan.

Davlatimiz rahbari konferensiyada nutq so‘zladi va bu to‘siqni bartaraf etishga qaratilgan tashabbuslarni ilgari surdi. Konferensiya doirasida yana bir quvonarli voqea ro‘y berdi. **Davlatimiz rahbariga Turkmanistonning “Hamkorlikni rivojlantirishga qo‘shgan hisssasi uchun” ordeni tantanali ravishda topshirildi.**

Prezidentimiz turkman xalqining milliy yetakchisi, Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli Berdimuhamedovga, Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov va qardosh turkman xalqiga yuksak davlat mukofoti uchun chuqur minnatdorlik bildirar ekan, ushbu mukofotni O‘zbekiston va mamlakatimizning ko‘p millatli xalqiga alohida e’tibor va hurmat, Markaziy Osiyo mintaqasida do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik, o‘zaro ishonch va sheriklik munosabatlarini mustahkamlash borasidagi umumiy sa’y-harakatlarning e’tirofi sifatida qabul qilishini bildirdi.

Davomi 3-beta

O'ZBEKISTON PREZIDENTINING XITOYGA TASHRIFI: QIZG'IN DASTUR, MUNOSABATLARNING YANGI UFQLARI

Boshlanishi 1-betda

Xesus XIL, Madrid avtonom universitetining Osiyo tadqiqotlari markazi professori, Ispaniya Sharqshunoslari uyushmasi bosh kotibi, turkshunos:



— Tashrif rasmiy Toshkent va Pekin o'rtasidagi ikki tomonlama munosabatlar rivojida muhim voqea bo'ldi. Xitoy Raisi Si Szinpin bilan bo'lib o'tgan muzokaralar ikki davlat o'rtasidagi o'zaro anglashuv va strategik ishonchning yuksak darajada ekanligini yaqqol ko'rsatdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Xitoy bilan har tomonlama strategik sheriklikni chuqurlashtirish va amaliy hamkorlikni kengaytirish tarafdori ekanini namoyish etdi. Muloqot chog'ida "O'zbekiston — 2030" strategiyasini barqaror rivojlanish uchun yangi uqqlarni ochadigan "Bir makon, bir yo'l" global tashabbusi bilan uyg'ulashtirishga alohida e'tibor qaratildi.

Tashrifning alohida ahamiyati hamkorlikning strategik yo'nalishlari — iqtisodiyot va investitsiyadan tortib, fan, ta'lim va madaniyatgacha bo'lgan ikki tomonlama hujjatlar to'plami imzolanganida namoyon bo'lmoqda. Milliy taraqqiyot strategiyasini "Bir makon, bir yo'l" tashabbusi bilan uyg'ulashtirish bo'yicha hamkorlik dasturi, madaniyat markazlarini o'zaro tashkil etish to'g'risidagi bitim, tibbiyot, energetika, transport, raqamli iqtisodiyot va gumanitar almashinuv sohalaridagi kelishuvlar shular jumlasidandir.

Iqtisodiyot, texnologiya va investitsiya sohalaridagi kelishuvlarga alohida e'tibor qaratildi. Mamlakatlar o'rtasidagi tovar ayir-

boshlash allaqachon 14 milliard dollardan, investitsiya portfeli esa 60 milliard dollardan oshdi. O'zbekiston Prezident Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida jadallik bilan innovatsion loyihalar, jumladan, elektromobillarni birgalikda ishlab chiqarish, "yashil" energiya tashabbuslarini yo'lga qo'yish va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish markaziga aylanmoqda.

O'zbekiston Prezidenti insonparvarlik sohasida mamlakat manfaatlarini izchil himoya qilayotgani muhim. Madaniy markazlar tashkil etish, ta'lim dasturlarini kengaytirish va xitoy tilini o'rganish bo'yicha imzolangan shartnomalar madaniyatlararo muloqotni mustahkamlash, O'zbekistonning xalqaro makondagi nufuzini oshirishga xizmat qiladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning qo'shma sun'iy intellekt markazini tashkil etish tashabbusi uning kelajak haqidagi strategik qarashlarini tasdiqlaydi hamda O'zbekiston yetakchi texnologik davlatlar orasidan munosib o'rin egallaydi.

Mazkur tashrif nafaqat O'zbekiston — Xitoy aloqalarini yanada mustahkamlash, balki Prezident Shavkat Mirziyoyevning ko'p tomonlama hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan izchil siyosati, O'zbekistonning global jarayonlardagi faol ishtirokini namoyish etishi bilan ham ahamiyatli bo'ldi.

Omid RAHIMIY,
xalqaro munosabatlar va Markaziy Osiyo mintaqasi bo'yicha ekspert (Eron):



— O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning joriy yil 1-sentabr kuni bo'lib o'tgan Shanxay hamkorlik tashkilotining navbatdagi sammitidagi nutqi bilan tanishar ekanman, davlatingiz

rahbarining SHHTni yanada rivojlantirishga qaratilgan g'oyat muhim tashabbuslariga alohida e'tibor qaratdim.

Xalqaro siyosiy va iqtisodiy vaziyat o'zgarib borayotgan hozirgi sharoitda O'zbekiston Prezidentining tashabbuslari SHHT doirasidagi asosiy vazifalarga aylanishi kerak.

O'zbekiston mintaqasi uchun muhim tashabbuslari bilan ikki asosiy maqsadni ko'zlagan. Ular iqtisodiy xavfsizlik imkoniyatlarini kengaytirishni nazarda tutadi.

O'zbekiston Prezidenti xalqaro munosabatlar tizimidagi tub o'zgarishlar, geosiyosiy keskinlik va mojarolar avj olgani, global barqarorlik hamda barqaror rivojlanish uchun yangi xavf va tahdidlar yuzaga kelgani, ekologiya, oziq-ovqat va energetika xavfsizligi sohasidagi muammolar kuchayib borayotganini qayd etdi.

U, shuningdek, SHHTni izchil kengaytirish, uning muloqot bo'yicha sheriklari tarkibiga yangi a'zolari, jumladan, boshqa mintaqaviy davlatlarini qo'shish zarurligini, bu tashkilotni "Global Janub" mamlakatlari bilan hamkorlik platformasiga aylantirishga yordam berishini ta'kidladi.

O'zbekiston Prezidentining tinchlik va barqarorlikni ta'minlash yo'lida mintaqaviy integratsiya, barqaror taraqqiyotga erishish bo'yicha maqsadlarni belgilash kabi muhim global muammolarga oid qarashlari O'zbekistonni mintaqaning yetakchi davlatiga aylantirdi.

Magdi ZA'BAL,
"Misr — O'zbekiston" do'stlik hamjamiyati raisi, professor:

O'zbekiston Prezidentining Xitoyga rasmiy tashrifi va SHHT sammitida ishtiroki Misrda barcha darajada, rasmiy idoralardan tortib, ekspert va biznes doiralari katta qiziqish uyg'otdi.

Qohira "SHHT plus" formati muloqot maydoni sifatida qo'llab-quvvatlanmoqda, Toshkentning transport-logistikaga oid tashabbuslari esa strategik ahamiyatga ega deb baholalanmoqda.

Ko'p qutbillik va global boshqaruvni qo'llab-quvvatlash O'zbekiston va Misr tashqi siyosiy yo'nalishlarini yaqinlashtiradi.

O'zbekiston dunyoning yetakchi davlatlari qatorida Xitoy bilan ham samarali hamkorlikni yo'lga qo'ygani, xavfsizlikdan investitsiyalargacha pragmatik va proaktiv kun tartibini ilgari surayotgani tufayli, tahlilchilar rasmiy Toshkentni



mintaqadagi eng faol va ta'sirli kuch sifatida baholayotir.

O'zbekistonning iqtisodiy yutuqlari, ayniqsa, "yashil" energetika va infratuzilma sohasidagi muvaffaqiyatlari, nafaqat qo'shni davlatlar, balki Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika uchun ham namuna sifatida e'tirof etilyapti.

Umuman olganda, Misr tahlil doiralari Prezident Shavkat Mirziyoyevning Xitoyga rasmiy tashrifini O'zbekistonning xalqaro imijini mustahkamlovchi, Markaziy Osiyoning "Global Janub" arxitekturasidagi rolini kuchaytiruvchi omil sifatida baholayapti. Shu sababli ushbu tashrif Misr bilan yaqinlashish uchun ham yangi imkoniyatlar ochmoqda.

Maks SEY,
"KSI Strategic Institute for Asia Pacific" tahlil markazi ijrochi direktori (Malayziya):
— O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Tyanszin shahrida bo'lib o'tgan



"suveren o'zaro bog'liqlik" konsepsiyasi bilan uyg'undir. Markaziy va Janubi-Sharqiy Osiyo o'rtasidagi bunday "ko'priq" logistika, energetika va yuqori texnologiyalar sohasidagi yangi loyihalar uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Suan CHUYA,
Xitoyning "Nansha Economic Cooperation Association" ijrochi raisi:

— Tashrif va u bilan bog'liq tadbirlar mamlakatning mintaqaviy integratsiya jarayonlaridagi muhim o'rni, ko'p vektorli tashqi siyosati mustazamligini yana bir bor namoyon etdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Xitoy rahbariyati, shuningdek, ishbilarmon doiralari vakillari bilan uchrashuvlarda transport sohasida,



jumladan, "Xitoy — Qing'iziston — O'zbekiston" loyihasi, qo'shma ilmiy tadqiqotlar, "yashil" energiya, sog'liqni saqlash, sun'iy intellekt, madaniyat, ta'lim, turizm sohalari o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada kengaytirish istagini qayd etdi.

Ishonchim komilki, ushbu tashrif O'zbekistonni rivojlantirish uchun yanada qulay tashqi muhit yaratadi, hamkorlikni chuqurlashtirish, sarmoyalarni jalb etish, eksportni rivojlantirish uchun maydonni kengaytiradi, shuningdek, mamlakatning xalqaro hamjamiyatdagi rolini mustahkamlaydi.

O'zbekiston yetakchisi tomonidan SHHT va "SHHT plus" sammitlarida ilgari surilgan amaliy tashabbuslarni alohida ta'kidlab o'tmoqchiman va ularning tez amalga oshirilishi tashkilotning barcha ishtirokchilariga foydali bo'ladi.

Menimcha, SHHTning transport-tranzit salohiyatidan unumli foydalanish, Markaziy Osiyo orqali o'tadigan janubiy yo'nalisidagi yo'laklarni rivojlantirish bo'yicha takliflar butun mintaqasi uchun hayotiy ahamiyatga ega.

Guangdong provinsiyasining biznes vakili sifatida men Xitoy va O'zbekiston o'rtasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish istiqbollari ishonch bilan qarayman.

"Dunyo" AA

Bugunning gapi

"YASHIL" RIVOJLANISH MODELIGA O'TISH

USTUVOR VAZIFAMIZDIR

Boshlanishi 1-betda

Havo musaffoligi va ekologik muvozanatni ta'minlash so'nggi yillarda tobora tez-tez tilga olinadigan mavzuga aylangan bejiz emas. Zero, keyingi yillarda nafaqat mamlakatimiz yoki mintaqamiz, balki butun sayyoramizda ro'y berayotgan global ekologik muammolar barqarorlikka jiddiy tahdid tug'dirmoqda. Birgina havoning ifloslanishi natijasida yuzaga keladigan turli kasalliklar oqibatida minglab insonlar hayotdan erta ko'z yummoqda. Buning oldini olishning muhim yo'li — ekologik jihatdan sof, tabiatga bezarar texnologiyalardan foydalanish, tabiiy ne'matlarni asl holicha asrash, ekologik muvozanatni ta'minlashdir.

Yangi O'zbekistonning strategik maqsadi aynan ana shunday muhim tamoyil — ekologik barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiy o'sishning resurslar tejamliligiga asoslangan "yashil" rivojlanish modeliga o'tishga yo'naltirilgan. Ana shu ustuvor maqsad va rejalarini ro'yobga chiqarish uchun energetika manbalari diversifikatsiya qilish, ularning muvozanatida uglevodorod ulushini keskin kamaytirish bilan bog'liq keng qamrovli ishlar qilinmoqda. "O'zbekiston — 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi doirasida bu ishlar ko'lamini yanada kengaytmokda.

Sohadagi asosiy yo'nalishlardan biri "yashil" energetikadir. Kelgusi besh yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini 54 foizga yetkazish rejalashtirilgan. Bu issiqxona gazlari chiqindisini qariyb 16 million tonnaga kamaytirish imkonini beradi.

Energetika vazirligi ma'lumotiga ko'ra, bugun yurtimizda umumiy quvvati 4119 megavatt bo'lgan 11 ta quyosh va 4 ta shamol elektr stansiyasi "yashil" energiya ishlab chiqarmoqda. Iyulda mazkur stansiyalar

1 milliard 246 million kilovatt-soat elektr energiya ishlab chiqargani mamlakatimiz energetika tizimi uchun yangi rekord ko'rsatkichdir. Natijada 377,5 million kub metr tabiiy gaz tejaliishiga erishildi. Atmosferaga 1 million 120 ming tonna zararli gaz chiqishining oldi olindi.

Bunday ijobiy natijalar quvonarli, albatta. Ammo hal etilishi zarur bo'lgan vazifalar ham talaygina. Xususan, so'nggi paytlarda mamlakatimizning turli hududlarida tez-tez ro'y berayotgan chang-to'zon hodisalaridan aholi jiddiy aziyat chekmoqda. Tabiiyki, bu jarayonni faqat tabiiy omillar ta'siri bilangina izohlab bo'lmaydi. Bunday holatlar yuzaga kelishida inson omilining ham o'rni muhim.

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi bu muammoning sabablarini izohlar ekan, yashil hududlar kamayishi, avtotransport vositalari sonining ortib ketishi, qurilish ishlari betartib bajarilayotgani, uglevodorodlar, jumladan, ko'mir, issiqlik markazlari tomonidan qo'shimcha yoqilg'i sifatida mazutdan foydalanish hajmi oshishi kabi omillar

bunga sabab bo'layotganini qayd etgandi. Mamlakatimizda ekologik yo'nalishdagi dastur va loyihalarni amalga tatbiq etishda bu muammolarni bartaraf qilishga alohida e'tibor qaratilayotir.

Prezidentimizning 2024-yil 24-sentabrda "Chang bo'ronlariga qarshi kurashish va atmosfera havosi sifatini yaxshilash bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori bu borada muhim dasturlamal bo'layotir. Ushbu hujjat asosida 2024-2030-yillarga mo'ljallangan milliy dastur ishlab chiqilib, izchil ishlanyapti. Bu jarayonda, xususan, havo musaffoligiga salbiy ta'sir etadigan omillarni bartaraf etish, tabiiy muvozanatni yaxshilashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi ma'lumotiga ko'ra, sanoat korxonalaridan atmosferaga ifloslantiruvchi moddalar tashlanishini kamaytirish borasida qator ishlar bajarilmoqda. Jumladan, joriy yilning o'tgan davrida atrof-muhitga ta'siri yuqori bo'lgan I va II toifaga

mansub 75 ta sanoat korxonasidagi chang-gaz tozalash uskunalari modernizatsiya qilindi va yangi, yuqori samaradorlari o'rnatildi.

Shuningdek, "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida sanoat korxonalari hududi va tutash hududlarida "yashil belbog'"lar barpo etish maqsadida joriy yil bahor mavsumida 6 million 128 ming tup daraxt va buta ko'chati ekildi. Bu esa yashillik darajasini oshiradi, havo sifatini yaxshilab, mikroiklimni shakllantirishga hissa qo'shadi. "Yashil belbog'"lar barpo etish ishlari kuz mavsumida ham davom ettiriladi.

Joriy yil 10-apreldan 10-maygacha "Toza havo oyli"ning birinchi bosqichi bo'lib o'tdi. Tadbir davomida 251 ming 858 ta avtotransport vositasi chiqargan gazning ifloslantiruvchi moddalari miqdori maxsus uskunalar yordamida ekologik nazoratdan o'tkazildi. Natijada atmosferaga 36,3 tonna ifloslantiruvchi modda tashlanishining oldi olingan. Hozir "Toza havo oyli"ning ikkinchi bosqichi davom etmoqda.

— Insonning sog'lom va uzoq umr kechirishi ekologik barqarorlikka bog'liq. Shu bois, bugun ekologik muvozanatni ta'minlash hayot-mamot masalasiga aylandi. Joriy yilning mamlakatimizda Atrof-muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili deb e'lon qilingani kelajak avlodlarning barqaror, xavfsiz va farovon yashashiga erishish yo'lidagi sa'y-harakatlarimizning yaqqol ifodasidir, — deydi Surxondaryo viloyati ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasi boshlig'i Bahodir O'rinov. — Bu borada Surxondaryo viloyatida ham keng qamrovli ishlar qilinayapti. Xususan "Yashil makon" loyihasi izchil amalga oshirilishi natijasida yashil maydonlar kengaymoqda. O'tgan yili kuz va bu yil bahorda 16 million tup ko'chat ekildi. Bu nihollarni sug'orish uchun tizimlar yaratildi. Ekilgan ko'chatlar "Yashil makon"



platformasiga joylandi. Sanoat korxonalari modernizatsiya qilinayapti. Jumladan, 67 ta korxonaning chang tozalash qurilmasi yangilanyapti.

Surxondaryoda tez-tez ro'y beradigan afg'on shamoli ham havo ifloslanishiga sabab bo'ladi. Bunga qarshi ihot o'rmonlari barpo etilyapti. Qum barxanlari ko'chishining oldini olish maqsadida suvsizlikka chidamli saksovlar urug'i va ko'chatlari ekildi. Joriy yil kuzda bu ishlar davom ettirilib, ming gektardan ko'proq hududda saksovlar, cherkez ekiladi.

Termiz shahrida ham keng qamrovli ekologik loyihalar amalga oshirilyapti. Shaharda ko'chat ekib, bog' barpo etish barobarida ichki suv tizimlari ham tartilyapti. Kanallar qazilib, yomg'irliatib sug'orish tizimi yaratildi. Natijada ilgari shaharning yashillik darajasi 10 foizga ham yetmagan bo'lsa, bugunga kelib, 30 foizga yetdi.

Bu xayrli ishlar ekologik barqarorlikka mustahkam poydevor bo'lishi barobarida xalqimizning salomatligini yaxshilash, odamlarning hayotdan rozi bo'lishiga

ham muhim zamin yaratayotir. Shu tufayli aholining ekologik loyihalarini amalga oshirishda faolligi oshib borayotir.

Bunga shu yil poytaxtimizda bo'lib o'tgan "Eco Expo Central Asia 2025" xalqaro ko'rgazmasida qatnashib yaqqol guvoh bo'ldik. Qiziqarlisi, mazkur ko'rgazmada namoyish etilgan startap loyihalarining salmoqli qismi yoshlar ishtirokidagi o'ziga xos ishlanma va ixtirolar bo'ldi. Ularning orasida Surxondaryo viloyatidan kelgan 20 dan ziyod yigit-qiz ham o'z g'oyasi, loyiha va ixtirolari bilan ishtirok etdi.

USHBU MAQOLANI QORAALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

BUYUK TARAQQIYOTNING KATTA ZAMINI

YOZNING SO‘NGGI OYIDAGI ORTGA QAYTMAS ISLOHOTLARGA BIR NAZAR



Sanjar ESHMURODOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Boshlanishi 1-betda

Aslida, bugun mintaqamiz uzra tinchlik-totuvlik, yaxshi qo‘shnichilik, do‘stlik, birdamlik shamoli esishida davlatimiz rahbarining xizmati beqiyos. Shavkat Mirziyoyev Prezidentlik faoliyatining ilk pallalaridanoq qo‘shni davlatlarga do‘stlik, bironadlik qo‘lini uzatdi. Mintaqamiz dunyodagi muhim geografik hudud bo‘lishi uchun hamjihatlikda, bir tanu bir jon bo‘lib harakat qilish zarur ekanini xalqaro minbarlarda turib baralla aytdi. Bugun davlatimiz rahbarining sa‘y-harakati, qo‘shnilarimizning xayrixohligi tufayli hamkorlik aloqalari, do‘stlik zanjiri yanada mustahkamlanmoqda. Mintaqadagi davlatlar o‘z taraqqiyot yo‘lida ildam odimlamoqda. Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvi, “Markaziy Osiyo plus” formati kabi mintaqaviy tadbirlar rejalamini hayotga tatbiq etishda qo‘l kelmoqda.

Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining bu yilgi Maslahat uchrashuvi O‘zbekistonda bo‘lib o‘tadi. Prezidentimiz Turkmanistonga amaliy tashrifi davomida ushbu tadbirni ko‘tarinki ruhda, samarali o‘tkazish bo‘yicha qatnashchilar bilan kelishib oldi.

Shuningdek, **Turkmanistonda BMT Bosh kotibi Antoniu Guterress hamda Gruziya Bosh vaziri Irakliy Kobaxidze uchra shuvlar bilan ikki tomonlama uchrashuvlar o‘tkazdi. Ko‘pgina manfaatli shartnoma va kelishuvlarga erishildi.**

Keyingi yillarda O‘zbekistonning dunyo davlatlari bilan aloqalari ham manfaatli, ham keng qamrovli tus olmoqda. Hamkor mamlakatlari yetakchilari bilan turli formatdagi uchrashuvlarda erishilayotgan kelishuvlar bunga zamin hozirlamoqda. Davlatimiz rahbarining avgustning o‘zida ikki bor Turkmanistonga tashrifi ham so‘zimizni isbotlaydi.

Prezidentimiz 22-avgust kuni “O‘zabayjon — Turkmaniston — O‘zbekiston” formatidagi uch tomonlama sammitda ishtirok etish uchun amaliy tashrif bilan Turkmanistonda bo‘ldi.

Sammitda ko‘p tomonlama, eng avvalo, savdo-iqtisodiy, transport-kommunikatsiya, energetika va gumanitar sohalardagi hamkorlikni yanada rivojlantirish masalalari ko‘rib chiqildi. Jumladan, uch davlatning ulkan tanqiz salohiyatini to‘liq ishga solish muhimligi qayd etilib, O‘rta marshrutni, jumladan, Qazguzur yo‘lagini rivojlantirish borasidagi rejalarni qo‘llab-quvvatlandi.

O‘zbekiston nafaqat qo‘shni va qardosh mamlakatlar bilan do‘stona, o‘zaro manfaatli hamkorlik qilmoqda, balki davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, taraqqiyot yo‘lida manfaatli teng hamkorlikka barcha davlatlar uchun ochiq. Prezidentimizning oqilona tashqi siyosati mamlakatimiz uchun manfaatli bo‘lishi barobarida, turli davlatlar, xalqaro tashkilotlar rahbarlari tomonidan e’tirof etilmoqda. Xususan, 25-26-avgust kunlari davlat tashrifi bilan O‘zbekistonga kelgan Iordaniya Hoshimiylar Podshohligi Podshohi Abdulla II ibn al-Husayn ko‘p qirrali hamkorlikni kengaytirish borasidagi umumiy sa‘y-harakatlarning munosib e’tirofi sifatida Shavkat Mirziyoyevga Iordaniyaning “An-Nahda” (“Renessans”) ordenini taqdim etdi. Tashrif davomida mamlakatlarimiz o‘rtasidagi munosabatlarni yangi sheriklik darajasiga ko‘tarishga asos yaratildi. Yetakchilar siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, transport va madaniy-gumanitar sohalaridagi hamkorlikni har tomonlama rivojlantirishga kelishib oldi.

Shuningdek, avgustda **mamlakatimizga Pokiston Islom Respublikasi Shtablar**

boshlirlari birlashgan qo‘mitasi raisi, general Sahir Shamshod Mirzo, Yaponiya tashqi ishlar vaziri Takesi Ivaya boshchiligidagi delegatsiyalar, AQSH Prezidentining global sherikliklar bo‘yicha maxsus vakili Paolo Zampolli ham tashrif buyurdi.

Prezidentimiz 14-avgust kuni mamlakatimizdagi diplomatik missiyasini yakunlayotgan Fransiya Respublikasining favqulodda va muxtor elchisi Oreliya Bushezni qabul qildi. Davlatimiz rahbari Fransiya elchisining samarali faoliyati hamda mamlakatlarimiz o‘rtasidagi strategik sheriklik munosabatlarini rivojlantirish va mustahkamlashga qo‘shgan shaxsiy hissasini alohida qayd etib, unga “Do‘stlik” ordenini topshirdi.

Davlatimiz rahbari, shuningdek, Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin, Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev, Hindiston Bosh vaziri Narendra Modi, Belarus Respublikasi Prezidenti Aleksandr Lukashenko bilan telefon orqali muloqot qildi.

Bundan tashqari, oy yakunida yana bir muhim tadbir — SHHT sammitida qatnashish uchun Xitoyning Tyanszin shahriga bordi.

SHHT bugun eng yirik va nufuzli xalqaro tashkilotlardan biri. 2001-yili tashkil etilganidan buyon dunyo aholisining 40 foizdan ortig‘ini va jahon yalpi ichki mahsulotining to‘rtidan bir qismini birlashtirgan nufuzli xalqaro tuzilma sifatida o‘zini namoyon qildi.

Davlatimiz rahbari 31-avgust kuni SHHT sammitining norasmiy tadbirlarida ishtirok etgan bo‘lsa, 1-sentabr kuni SHHT Davlat rahbarlari kengashi hamda “Shanxay hamkorlik tashkiloti plus” formatidagi majlislarda ishtirok etib, nutq so‘zladi.

E’tiborli jihati, Prezidentimiz har ikki anjumanda nafaqat SHHT makoni, balki dunyoda tinchlik va barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan muhim tashabbuslarni ilgari surdi.

Jumladan, sammit ishtirokchilarini Yadro xavfsizligi yo‘lida ko‘p tomonlama sheriklikni mustahkamlash bo‘yicha SHHT deklaratsiyasini qabul qilishga chaqirdi. Transchegaraviy tahdidlarga qarshi samarali kurashish maqsadida Ichki ishlar va jamoat xavfsizligi vazirlari kengashi ishini qayta tiklash, Jinoyatchilikka qarshi kurashishda hamkorlik to‘g‘risidagi bitimni qayta ko‘rib chiqish, Giyohvandlikka qaram bo‘lib qolishga qarshi kurashishning 2030-yilga



yo‘laklar yaratishni nazarda tutuvchi konsepsiyani ishlab chiqish tashabbusini ilgari surdi.

Umuman olganda, SHHT sammiti va “Shanxay hamkorlik tashkiloti plus” formatidagi majlisda O‘zbekiston tomoni ilgari surgan tashabbuslar tinchlik va umumiy taraqqiyotga keng yo‘l ochishi bilan ahamiyatlidir.

Davlat ishlarining to‘qqiz ulushi kengash. Sohibqiron Amir Temur “Saltanat ishlarining to‘qqiz ulushini mashvarat, tadbir va kengash, qolgan bir ulushini esa qilich bilan bajo keltirish zarur”, deya qayd etgan. Bugun ham mamlakatimizdagi ortga qaytmas islohotlar, sohalar va hududlarda kuzatilyotgan muhim o‘zgarish va yangilashlar avval puxta o‘ylanib, reja qilinib, aksariyat hollarda bir hudud tajribasi orqali samarasiga xolisona baho berilib, keyin hayotga tatbiq etilmoqda.

Avgustda qator dolzarb masalalar bo‘yicha o‘tkazilgan muhokamalar, turli tashabbuslar taqdimoti bilan tanishuvlar, sohalar bo‘yicha hisobot va videoselektor yig‘ilishlari ham so‘zimizni isbotlaydi.

Axir keyingi yillarda barcha yo‘nalishlarda zamon talablariga mos olib borilayotgan islohotlar sohalar rivojini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, davlatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy yuksalishiga to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’sir etyapti. Xalqimizning turmushi yanada yaxshilanishi, yurtdoshlarimizning huquqiy manfaatlari

ilgari bu oyda abituriyent bo‘lgan millionlab o‘zbek o‘g‘il-qizlari oldida uchta yo‘l bo‘lardi. Birinchisi, o‘qishga kirs, undan baxtli inson yo‘q. O‘z xayollari ortidan boradi. Agar o‘qishga kirolmasa, yana repetitor eshigi oldida sarg‘ayishi yoki chet elga ishlashga ketishiga to‘g‘ri kelardi. Keyingi yillarda ta’lim tizimidagi tub islohotlar natijasida yoshlarning tanlov imkoniyati kengaygan. Masalan, hujjat topshirishda abituriyentlar 5 tagacha oliy o‘quv yurtini tanlashi yoki xususiy universitetlar eshigini qoqishi mumkin. Bir so‘z bilan aytganda, o‘qiyman degan yoshga kerakli imtiyoz va imkoniyatlar yaratilgan. Hatto oliy ta’lim muassasasini bitirgach, ularning bandligini ta’minlash borasida ham davlat qayg‘urmoqda.

Prezidentimiz rahbarligida 8-avgust kuni o‘tkazilgan yig‘ilish ayni shu masalaga, ya’ni oliy o‘quv yurtlari bitiruvchilari bandligini ta’minlashga qaratildi. Unda yoshlarning puxta bilim olib, yetuk kadr bo‘lishi, o‘zi istagan shart-sharoitlarda ishlash uchun yangi imkoniyatlar yaratilishi haqida so‘z bordi.

Masalan, abituriyent o‘zi tanlagan 5 tagacha oliy o‘quv yurtining birortasiga o‘qishga kirolmagan bo‘lsa, lekin to‘plagan bali boshqa oliyog‘ohdagi to‘lmagan yo‘nalishga to‘g‘ri kelsa, shartnoma asosida o‘sha oliyog‘ohga qabul qilinishi mumkin. Shuningdek, davlatimiz rahbari yoshlarning bandligini ta’minlash bo‘yicha qator tashabbuslarni ilgari surdi. 92 ming bitiruvchining keyingi faoliyatiga ko‘maklashish chora-tadbirlari belgilandi.

Qayd etilganidek, bu yilgi bitiruvchilardan 20 mingi magistratura va ikkinchi mutaxassislikka qamrab olinadi. Yana 20 mingi staj talab qilinmaydigan ishlarga joylashtiriladi. Har bir viloyatda “biznes inkubatorlar” tashkil qilinib, tadbirkorlik, marketing, dizayn, axborot texnologiyalari sohalarida 10 ming bitiruvchining bandligi ta’minlanadi.

Shuningdek, **Prezidentimiz “yashirin” iqtisodiyotga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish; yakka tartibdagi tadbirkorlar hamda o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish; suv resurslarini boshqarish va irrigatsiya sektorini rivojlantirish; sud tizimini takomillashtirish va odil sudlov masalalariga oid; sog‘liqni saqlash tizimini transformatsiya qilish va tibbiy yordam sifatini oshirishga qaratilgan taktiklar, chiqindilarni qayta ishlashni kengaytirish chora-tadbirlari bo‘yicha taqdimotlar bilan tanishdi.**

To‘g‘imachilik sohasida eksport imkoniyatlari va zaxiralarni ishga solish masalalari bo‘yicha videoselektor yig‘ilishi o‘tkazildi. Yig‘ilish va taqdimotlarda belgilab berilgan ustuvor vazifalar tarmoqlarni karrasiga rivojlantirishi shubhasiz.

Yurtimizning har bir hududi o‘ziga xos infratuzilma, iqtisodiyotning turli tarmoqlarini taraqqiy ettirish uchun qulay muhitga ega. Masalan, Navoiy viloyati sanoati, Toshkent viloyati takrorlanmas turizm salohiyati, Qashqadaryo esa yirik qishloq xo‘jaligi, boy neft-gaz zaxirasi bilan mashhur. Shu bois, hududlarni rivojlantirishda imkoniyatlarga

mos tashabbuslar ilgari surilib, yangi loyihalar amalga oshirilmoqda.

Masalan, Navoiy viloyati yerosti boyliklari, sanoati va qishloq xo‘jaligi bo‘yicha ulkan salohiyatga ega hudud. So‘nggi sakkiz yilda hududda 8 milliard dollarlik 7000 dan ziyod loyiha amalga oshirilib, 73 mingta ish o‘rni ochilgan. Tadbirkorlar soni 10 mingdan 30 mingga ko‘paygan.

Bu haqda **Prezidentimizga 7-avgust kuni Navoiy viloyatida islohotlar natijadorligi va yangi rejalarni muhokamasi yuzasidan o‘tkazilgan yig‘ilishda ma’lumot berildi.**

Yig‘ilishda joylardagi imkoniyatlarni yuzaga chiqarish uchun Navoiy viloyatida ham **“Islohotlar shtabi”** tuzilgani qayd etilib, tadbirkorlarning taktiklari asosida ishlab chiqilgan yangi loyihalar taqdimoti o‘tkazildi. Jumladan, G‘ozg‘on shahri, Nurota, Xatirchi, Navbahor va Uchquduq tumanlaridagi 8 ta kongra investorlar 566 million dollar sarmoya kiritishga tayyorligi ma’lum qilindi. Natijada sanoat qiymati 2,5 trillion so‘mga, eksportniki esa 100 million dollarga ko‘payadi. Masalan, Nurota tumanida 750 million kub metr granit tosh zaxirasi bor. Uni qayta ishlash uchun 50 gektar maydonda sanoat hududi tashkil etish taktiklari bildirildi.

“Islohotlar shtabi” joylarda foydalanilmay turgan imkoniyatlarni qisqa muddatda yuzaga chiqarish, viloyat, tuman va shaharlar rivojini jadallashtirishga ulkan hissa qo‘shmoqda.

Davlatimiz rahbari, shuningdek, Toshkent shahrida energetika tizimining barqarorligini ta’minlash chora-tadbirlari bo‘yicha axborotni tingladi hamda Buxoro viloyatida islohotlar natijadorligi va yangi loyihalar muhokamasi yuzasidan yig‘ilish o‘tkazdi.

Bu kabi yig‘ilishlarda qabul qilingan qarorlar, ilgari surilgan tashabbus yoki loyihalar o‘sha joyning o‘zida qolib ketmayapti. Ularni hayotga tatbiq etish uchun tegishli qonunlar, Prezidentimizning farmon, qaror va farmoyishlari qabul qilinmoqda. Ushbu qonun hujjatlar, albatta, sohalaridagi yangilanish va o‘zgarishlarni tartibga solib, keyingi bosqichga ko‘tarilishida poydevor vazifasini o‘taydi.

E’tirof va rag‘bat — samaradorlik garovi. Prezidentimiz avgustda kasb bayramini nishonlayotgan yurtdoshlarimizga tabrik yo‘llab, soha fidoyilarni rag‘batlantirdi. Tabrik yo‘llab, soha fidoyilarni rag‘batlantirdi. Tabrik yo‘llab, soha fidoyilarni rag‘batlantirdi. Tabrik yo‘llab, soha fidoyilarni rag‘batlantirdi.

Davlatimiz rahbari an’anaga aylangan 20-avgust — Tadbirkorlar kunida yurtimizdagi ishbilarmonlar bilan ochiq muloqot shaklida uchrashuv o‘tkazdi. Bu yilgi uchrashuv har yilgidan ham ko‘tarinki ruhda bo‘ldi.

Tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish uchun qator imtiyoz va imkoniyatlar berildi. Jumladan, 2026-yildan yana 10 turdagi litsenziya va ruxsatnoma bekor qilinishi belgilandi. Bu — navbatdagi uchrashuv yangiliklaridan bir shingili, xolos. Tadbirkorlik faoliyatini 15 daqiqada ro‘yxatdan o‘tkazish imkonini beruvchi alohida platforma yaratilishi, turli soliqlardan

berilayotgan imtiyozlar... Ochig‘i, ro‘yxati uzun bu kabi qulayliklar mamlakatimizda yanada jozibador investitsiya va biznes muhitini yaratishga xizmat qiladi.

Zero, Prezidentimiz qayd etganidek, tadbirkor yangi O‘zbekiston taraqqiyoti, istiqbolini ta’minlaydigan, davlatimizni boy,

xalqimiz, oilalar hayotini farovon qiladigan kuchdir.

Ochiq muloqotning Yangi Toshkentda o‘tkazilishi tadbirga o‘zgacha shukuh bag‘ishladi. Prezidentimizning tegishli farmoni bilan mamlakatimiz iqtisodiy qudrati va eksport salohiyatini oshirayotgan, aholi bandligi va farovonligini ta’minlash yo‘lida jonbozlik ko‘rsatayotgan bir guruh tadbirkorlar faxriy unvonlar, orden va medallar bilan mukofotlanishi muloqotni katta shodiyonaga aylantirib yubordi. Tadbirkorlar bilan uchrashuv Vatanimiz mustaqilligining 34 yillik bayrami tantanalarga ulanib ketdi.

Obod, ozod yurtga shodiyonalar yarashadi. Avvalo, bayram arafasida davlatimiz rahbari poytaxtimizdagi bunyodkorlik ishlari bilan tanishdi. Jumladan, yangidan qurib bitkazilgan Olimpiya shaharchasiga tashrif buyurdi. Bu yerda sportimiz kelajagi bo‘lgan yoshlarga yaratilgan shart-sharoitni ko‘zdan kechirdi.

Velodrom murakkab muhandislik yechimlari asosida, o‘ziga xos dizaynda qurilgan. Uning yog‘och qoplamasi sifati, trayektoriyasi va burilish burchaklari Xalqaro Olimpiya qo‘mitasi talablariga javob beradi. Majmua ko‘p funksiyali bo‘lib, bu yerda stol tennis, qilichbozlik bo‘yicha musobaqa va mashg‘ulotlar o‘tkazish ham mumkin. Bunday darajadagi velodrom O‘zbekistonda birinchi.

Shaharcha markazida 12 ming o‘rinli stadion joylashgan. Xalqaro turnirlar paytida bu yerda tantanali marosimlar tashkil etiladi. Asosiysi, yashil maydon va 9 qatorli yugurish yo‘lagida yengil atletikaning 48 turi bo‘yicha musobaqalar o‘tkaziladi. Bunday maskanlar kelgusida olimpiya musobaqalarida davlatimiz bayrog‘ining yanada baland ko‘tarilishiga xizmat qiladi.

Prezidentimiz tashrif davomida Yuqori Chirchiq tumanida barpo etilgan milliy futbol markazi, “Yangi O‘zbekiston” bog‘iga yondosh qurilgan zamonaviy mehmonxonalar majmuasida ham bo‘ldi.

Olimpiya shaharchasi davlatimiz rahbarining sportga qaratayotgan ulkan e’tiborini namoyon etsa, bayram arafasida tamal toshi qo‘yilgan O‘zbekiston milliy muzeyi hamda qurilish jarayoni oxirlab qolgan Islom sivilizatsiyasi markazi ilm-fan, diniy-ma’rifiy sohadagi bunyodkorliklarning yorqin namunasidir.

“Toshkent” sharqiy aerodromi negizida barpo etilgan yangi aeroport, Yangi O‘zbekiston ko‘chasidagi yerosti avtomobil yo‘li Toshkent shahri infratuzilmasiga katta foyda beradi.

Davlatimiz rahbari mustaqillik bayramini yurt ozodligi yo‘lida jon fido etgan vatandoshlarimizni ziyorat qilish, Shahidlarni xotirasi xiyobonida qatag‘on qurbonlarini yod etish bilan boshladi. So‘ngra “Yangi O‘zbekiston” bog‘idagi mustaqillik monumnti poyiga gulchambar qo‘yildi.

“Yangi O‘zbekiston” bog‘ida mustaqilligimizning o‘ttiz to‘rt yilligiga bag‘ishlangan tantanali bayram tadbiri bo‘lib o‘tdi. Bayramona kayfiyatdagi yurtdoshlarimiz qarsaklari, xushovoz san’atkorlarimizning sehrli ovozi, ko‘ngilni ko‘taruvchi sho‘x musiqani tinglayotgan ishtirokchilar chehrasida bugungi ozod va obod O‘zbekistonning mag‘rur va xushbaxt qiyofasi zo‘hir. Ularning ko‘zida eng ulug‘ tuyg‘u — o‘z vataniga emini-erkin, ko‘z tal hayotiga egalik qilish hissi porlab turibdi.

Yurtimizning har bir qo‘shnisi, yurtdoshlarimiz qalblarida jo‘sh urayotgan istiqloq tantanalari yangi o‘quv yili bayramiga ulanib ketdi. Prezidentimiz 2-sentabr kuni mamlakatimiz maktablari o‘quvchilari va ustoz-murabbiylariga tabrik yo‘llagani ham o‘ziga xos ramziy ma’noga ega. Zero, tabrikda qayd etilganidek, mamlakatimizda ta’lim-tarbiya jarayonlari tobora takomillashib borayotgani, har yili ko‘plab yangi o‘quv maskanlari barpo etilayotgani, ularning moddiy-texnik bazasi mustahkamlanib, maktab ishi umumxalq harakatiga aylangani — keyingi davrda erishgan eng katta yutuqlarimizdan biridir.

Ha, bunday ozod va obod yurtga faqat bayramlar yarashadi. Boshqa tomondan, avgust — pishiqchilik, mo‘l-ko‘hlik, xayr-baraka oyi. Shu ma’noda, avgust o‘z nomiga mos, shunday ko‘tarinki kayfiyat, zo‘r shijoatda yankulandi. Bu shiddat keyingi oylarda ham salmoqli, kelgusi taraqqiyotimizga asos bo‘luvchi islohotlarni amalga oshirishga zamin yaratadi.

“Har bir oila, har bir fuqaro hayotiga yengillik, farovonlik, ijtimoiy adolat tamoyillarini olib kirgan bunday ezgulikka yo‘g‘rilgan islohotlar sirasiga bevosita Prezidentimiz tashabbusi bilan 2024-yilning 5-avgustida qabul qilingan “O‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalari hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo‘lgan huquqlarni e‘tirof etish to‘g‘risida”gi qonunini ham kiritish lozim deb hisoblaymiz. Boisi, bu qonun yurtimizdagi millionlab oilalarning hayoti va taqdiriga bevosita daxldorligi bilan o‘ta muhim ahamiyatga ega.

Yangi tizim amalda

UY-JOYGA EGALIK HUQUQI
MILLIONLAB OILALAR
TAQDIRIGA DAXLDOR TASHABBUS

Boshlanishi 1-betda

Masalan, propiska masalasining tag-tugi bilan yo‘q bo‘lishi har bir O‘zbekiston fuqarosi jonajon mamlakatimizning istalgan hududida erkin yashashi, ishlashi uchun teng sharoitlarning ta‘minlanishiga xizmat qilmoqda. Halol mehnat evaziga ishlab topgan pulimizni ma‘lum bir foiz evaziga naqdga aylantirishimiz yoki konvertatsiyaning ayrim shaxslargagina berilishi kabi yaqin o‘tmishdagi adolatsizliklar, oliy ta‘limga kirishdagi korrupsion sxemalar yangi davr odamlari uchun bugun go‘yo bir tushga aylandi. Demuqchimizki, xalqimizni qiynaydigan bu kabi muammolarga tizimli yechim topildi.

Har bir oila, har bir fuqaro hayotiga yengillik, farovonlik, ijtimoiy adolat tamoyillarini olib kirgan bunday ezgulikka yo‘g‘rilgan islohotlar sirasiga bevosita Prezidentimiz tashabbusi bilan 2024-yilning 5-avgustida qabul qilingan “O‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalari hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo‘lgan huquqlarni e‘tirof etish to‘g‘risida”gi qonunini ham kiritish lozim deb hisoblaymiz. Boisi, bu qonun yurtimizdagi millionlab oilalarning hayoti va taqdiriga bevosita daxldorligi bilan o‘ta muhim ahamiyatga ega.

Muxbirlarimiz ushbu qonun ijrosi ayni paytda joylarda qanday ta‘minlanayotganini o‘rganib, oddiy odamlar va mutasaddilar fikrlari bilan qiziqdi.

“Uyimni davlatning o‘zi
kadastr qilib berdi!”

Hayotda har bir inson o‘zining uy-joyi bo‘lishini, unga egalik qilish, sotish, avlodlarga meros qoldirish, umuman, erkin tasarruf etishni xohlaydi.

Mamlakatimizda uy-joyga ega bo‘lish va qurishning qonuniy mexanizmlari mavjud bo‘lishiga qaramasdan ba‘zi fuqarolar, asosan, qishloq joylarda o‘zboshimchalik bilan yakka tartibda uy-joylarni noqonuniy barpo etishgan.

O‘z-o‘zidan ushbu o‘zboshimchalik bilan egallangan yer uchastkalari va u yerda qurilgan inshootlarda rasmiy kadastr hujjati bo‘lmaydi. Natijada hujjatsiz mulk egalari o‘z yerlari va uy-joylarini sotish, meros qilish yoki kredit olish uchun garovga qo‘yish kabi amaliyotlarda ko‘p muammolarga duch kelishi tabiiy. Bu, o‘z navbatida, aholining turli idoralarga mazkur ko‘chmas mulklarga nisbatan kadastr hujjatlarini tayyorlab berish uchun amaliy yordam so‘rab ko‘p marta murojaat qilishlariga sabab bo‘layotgan edi.

Xuddi shu masala Zarbdor tumani “Adir-obod” MFY Porloq yo‘li ko‘chasida istiqomat qiluvchi Dilnoza Andarovani ham ko‘p qiynardi. Uning ezu niyatlar bilan devorlari ko‘tarilgan shinamgina o‘z uyi bor, ammo bu uy hujjatlarda qayd etilmagandi.

Dastlabki yillardagi beparvoligi, keyinchalik kadastr hujjati tayyorlashdagi qiyinchilik va muammolar sabab uyining hujjati yo‘q edi. Garchi uni hech kim uyining kadastr yo‘q ekan deb bezovta qilmagan bo‘lsa ham, xuddi biron narsasini yo‘qotgandek, o‘z uyida omonat turgandek his qilardi. Ammo kadastr hujjati tayyorlash

bo‘yicha harakatlari samarasiz ketayotgan bo‘lsa ham, umidi so‘nmagandi.

Dilnoza Andarovadek ovora bo‘layotgan minglab, balki yuz minglab yurtdoshlarimizga yuqorida nomi keltirilgan qonun tufayli imkoniyat eshiklari ochildi. Ushbu qonun nafaqat yer uchastkalariga, ko‘chmas mulklarga nisbatan huquqiy munosabatlarni tartibga soldi, shu bilan birga, millionlab ko‘ngillarga xotirjamlik olib kirdi.

— Uyimni davlatning o‘zi kadastr qilib beradi deb hech o‘ylamagandim, — deydi Dilnoza Andarova. — Bir kuni tumanimiz kadastr xodimlari kelib, yerimizni o‘lchab ketdi. Ularga hech qanday to‘lov qilganimiz yo‘q. Oradan ancha vaqt o‘tgandan keyin telefonimga xabar keldi. Bankka borib, belgilangan to‘lovni amalga oshirdim. Nihoyat necha yillardan beri orziqib kutganim — o‘z uyimga bo‘lgan egalik huquqini tasdiqlovchi rasmiy kadastr hujjatiga ega bo‘ldim. Endilikda mana shunday yengilliklarni yaratganlarni duo qilib, xotirjam, xavotirsiz, farzandlarim va nevaralarim tarbiyasi bilan shug‘ullanyapman.

Ushbu qonun xalqimiz huquqlariga nisbatan davlat e‘tiborining yorqin ifodasi bo‘ldi, desak mulbog‘a bo‘lmaydi. Qonunning eng asosiy va muhim ahamiyati — u o‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalari hamda ularda qurilgan



tizimga vakolati 18 tashkilot ham tegishli ma‘lumotlarini kiritib boradi. To‘plangan hujjatlarning to‘liqligi va qonuniyligi viloyat adliya boshqarmasi tomonidan tekshirib chiqiladi. Eng so‘nggida esa ijobiy xulosa qabul qilingan fuqarolarga bir martalik to‘lovni amalga oshirish borasida SMS-xabarnoma yuboriladi.

Noaniqliklar bartaraf
etilmoqda

— Yaqinda kadastr xodimlari uyimizga kelib, xatlov o‘tkazdi, — deydi Shabnam ko‘chasida yashovchi Shokir Abdushukurov. — Ushbu hovlida 20 yildan beri yashayman. Kadastr hujjatlari ham bor. Xatlovda uyim 11 sotix chiqdi. Hujjatda 6 sotix ekan. Men shu vaqtgacha uyim 12 sotix deb soliqlarni to‘lab kelayotgan edim. Menga kadastr xodimlari tushuncha berdi, endi hujjatlarimni to‘g‘rilab, ortiqcha to‘langan soliqlarimni hisob-kitob qilaman. Fursatdan foydalanib, xalqimiz manfaatini ko‘zlab chiqarayotgan mana shunday qonunlarning tashabbuskori — Prezidentimizga minnatdorlik bildiraman.

Qonunga ko‘ra, ijobiy xulosa qabul qilingan fuqarolarga Kadastr agentligi tomonidan bir martalik to‘lovni amalga oshirish borasida SMS-xabarnoma yuboriladi. Xabarnoma asosida bir martalik to‘lovni amalga oshirganlarga har chorakda Xalq deputatlari viloyat Kengashi qarori bilan huquqlar e‘tirof etiladi. Egalik huquqining berilishi natijasida yillar davomida hujjatsiz yashash sabab yuzaga keladigan noqulayliklar va xavotirlar ortda qoladi. To‘liq egalik huquqi uy-joy egalari uchun ushbu mulkni xohlagan paytda sotish, yaqinlarga hadya qilish yoki meros qoldirish imkonini beradi.

— Olib borilgan xatlov ishlari natijasida Xalq deputatlari viloyat Kengashining sessiyalarida bugungi kunga kelib, 316 fuqaroning uy-joylariga nisbatan mulk va ijara huquqlari rasman e‘tirof etildi, — deydi Davlat kadastrlari palatasi Jizzax viloyati boshqarmasi boshlig‘i Sanjar Qodirqulov. — Ular tomonidan bugungi kunga qadar 30 ming 716 ta ko‘chmas mulk obyekti xatlovdan o‘tkazildi va jami 17 ming 244 ta obyekti hujjatlari “E‘tirof” avtomatlashtirilgan tizimga o‘tkazilgan. Muhokamada turgan obyektlar soni 12 ming 520 tani, e‘londagilari 1307 tani tashkil etadi. 2024-yil viloyatimiz hududidagi 23 ta mahallada xatlov ishlari amalga oshirilgan bo‘lsa, joriy yil yakuniga qadar 114 ta mahallada xatlov qilish ishlarini bajarish rejalashtirilgan. Bugungi kunda reja-jadvalga asosan yuzdan ziyod mahalla fuqarolar yig‘inlarining chegaralari “UZKAD” tizimida shakllantirildi va ushbu mahallalarda 3913 ta inventarizatsiya hududi yaratildi. Shundan hududdagi 2606 ta ko‘chmas mulk obyekti bo‘yicha xatlov qilish ishlari bajarildi va ko‘chmas mulk chizmali shakllantirish ishlari olib borilmoqda.

— Mahallamizda 930 xonadon mavjud, — deydi Zomin tumani Navbahor mahallasi raisi Nurmuhammad Taniqulov. — Ushbu xonadonlarda 1680 oila bor. Chunki ba‘zi xonadonlarda uchtagacha oila istiqomat qiladi. Bir necha kundan beri tumanimiz kadastr xodimlari mahallamizda xatlov o‘tkazyapti. O‘rganganimizda hududdagi oilalarning qariyb teng yarmida kadastr hujjati yo‘q ekan. Xatlovdan so‘ng chegaralar aniq belgilanishi fuqarolar o‘rtasidagi turli nizolarni, bahslarni yo‘qqa chiqaradi. Qo‘shni yer uchastkalari bilan bog‘liq muammolar hal etilib, adolati taqsimot ta‘minlanadi. Shuningdek, mulkiy qiymat



berdi. Bundan cheksiz minnatdormiz. Bo‘lmasa, yana qancha yillar qiynalib yashardik. Endilikda bularning barchasiga huquqiy baho berilayotgani ayni muddao bo‘ldi.

Mamlakatimizda yerdan samarali foydalanish, aholi manfaatlarining huquqiy kafolatlarini ta‘minlash hamda uy-joylarni rasmiylashtirish bo‘yicha keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Kadastr agentligi tasdiqlagan maxsus reja-grafik asosida hozir hudud bo‘ylab xonadonlar xatlovdan o‘tkazilmoqda. Bu yil Farg‘ona viloyatidagi 306 ta mahallada xonadonlarni xatlovdan o‘tkazish va huquqiy hujjatlashtirish ishlari belgilangan.

— Joriy yilning 1-avgust kunigacha viloyatimizdagi 49 ming 293 ta ko‘chmas mulk obyekti xatlovdan o‘tkazildi, — deydi Davlat kadastrlari palatasi Farg‘ona viloyati boshqarmasi boshlig‘i Ravshan Mirzahmedov. — Ularning 35 ming 48 tasi “UZKAD” milliy kadastr tizimiga kiritilgan bo‘lsa, 25 ming 593 ta obyekti “E‘tirof” avtomatlashtirilgan axborot tizimiga yuklandi. Hozir 19 ming 949 ta obyekti bo‘yicha hujjatlari tegishli idoralar tomonidan ko‘rib chiqilmoqda. Mazkur jarayon aholining mulkiy huquqlarini mustahkamlash, yer va binolarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni soddalashtirishga xizmat qilmoqda.

O‘ziga xos mezonlar bor

Yurtdoshlarimiz o‘z mahallalarida xatlov ishlari qachon boshlanishini etirof. kadastr.uz sayti orqali bilib olishlari mumkin. Ta‘kidlash kerakki, bu turdagi ko‘chmas mulkni qonuniylashtirish uchun qator mezonlar belgilangan. Jumladan, yer uchastkasi boshqa shaxsga ajratilmagan yoki auksionga chiqarilmagan bo‘lishi, yer uchastkasidan foydalanishda nizo mavjud bo‘lmasligi, yer va mol-mulk solig‘i bo‘yicha qarzdorlik mavjud emasligi, obyekti muhofaza zonalarida yoki sug‘oriladigan yerlarda joylashmaganligi va bosh reja talablariga zid bo‘lmasligi kabi bir qator shartlar belgilab qo‘yilgan.

— Mazkur qonun ko‘pchilik yurtdoshlarimiz intiqib kutayotgan yangilik bo‘ldi, — deydi Hayotjon Jamolov. — O‘zi yashab turgan xonadon egalari yer uchastkasi va qurilgan bino va inshootlarning huquqiy hujjatlari yo‘qligidan xavotirda yurgan bo‘lsa, endi bu muammolar barham topmoqda. Bu jarayon bizning hududda birinchilardan bo‘lib amalga oshirilmoqda. Qonuniylashtirilgan mulk — bu kelajakka ishonch, farzandlarimiz uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

— Agar yer uchastkasi amaldagidan ortiq maydonni egallagan bo‘lsa, ortiqcha qismi boshqa shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlariga zid kelmagan holda dehqon xo‘jaligi yoki tomorqa xo‘jaligi sifatida e‘tirof etilishi mumkin, — deydi Davlat kadastrlari palatasi Farg‘ona viloyati boshqarmasi jamoatchilik bilan aloqalar sho‘basi bosh mutaxassisi Usmonjon Qodirov. — Yer va binolarni qonuniylashtirishda joylashgan

MulK huquqlari
e‘tirofi

Farg‘ona viloyati Rishton tumani “Amirobod” mahalla fuqarolar yig‘inida umrbozaronlik qilayotgan Boqijon Teshabboyev otasidan meros qolgan hovlida yashayotganiga yetmish yildan oshdi. Bu



hovlida uning farzand va nabiralari kamolga yetmoqda. Ammo uy-joy uchun mulkiy huquqi yo‘q. Bu uy-joy qurish, hadya qilish, yaqinlarni ro‘yxatga qo‘yish bilan bog‘liq masalalarda ko‘plab muammolarga sabab bo‘lib kelayotgandi.

“O‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalari hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo‘lgan huquqlarni e‘tirof etish to‘g‘risida”gi qonun mazkur masalalar yechimida huquqiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

— Yashayotgan xonadonimiz otamning nomiga rasmiylashtirilgan. Otam esa 15-yil avval vafot etgan. Shu tufayli xonadonimiz va tomorqa yer-mulkimizni qonuniylashtirishda muammolar tug‘ilardi, — deydi Boqijon aka. — Kadastr xodimlari kelib, o‘rgandi va xonadonimizni to‘g‘ridan to‘g‘ri mening nomimga rasmiylashtirish va hadya qilish mumkinligini tushuntirdi. Kerakli hujjatlarni taqdim etdik, hozir kadastr ro‘yxatidan o‘tkazish ishlari ket-yapti. Mazkur qonun bizga o‘xshagan ko‘plab fuqarolarning muammolarini hal etishda ortiqcha ovoragarchilik, qog‘ozbozliklarning oldini olish, uzog‘imizni yaqin qilish imkoniyatini

hududi (viloyat markazi, shahar, boshqa aholi punkti va hokazo)ga qarab, BHMning 1 barobaridan 5 barobarigacha miqdorda bir martalik to‘lov undiriladi. Joylarda bu borada belgilab berilgan huquqiy asoslar, imtiyoz va imkoniyatlar, aholi vakolatlari yuzasidan keng qamrovli targ‘ibot ishlarini olib boryapmiz.

Sirasini aytganda, mazkur huquqiy islohotlar aholining manfaatlarini ta‘minlash, mulkiy huquqlarini qonuniy asosda e‘tirof etish va ularning turmush sharoitini yaxshilashga qaratilgan. Uy-joylarni qonuniylashtirish imkoniyati har bir fuqaro uchun o‘z mulkini rasmiylashtirish, tinch va osuda hayot kechirish hamda davlat organlari faoliyatida shaffoflik va ishonchni ta‘minlash imkonini beradi. Bu esa nafaqat huquqiy muammolarni hal etishga, balki aholining farovonligini oshirish, inson qadriini yuksaltirish sari tashlangan muhim qadamlardan biri sifatida e‘tirof etilmoqda.

Farhod NE‘MATOV,
Rasuljon KAMOLOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbirlari



Maktabda dars berish mahorati bilan boshqalardan ajralib turadigan, buning uchun o‘z ustida tinimsiz izlanadigan, qolaversa, har kuni zamonaviy maktab orzusi bilan yashaydigan kimyo o‘qituvchimiz bo‘lardi. Endi o‘ylasam, o‘sha ustozimiz ayni hozirgi maktablarni orzu qilgan ekan o‘shanda. Bugun ularda farzandlarimiz ta’lim olyapti.

Ha, so‘nggi yillarda maktab ta’limi sohasida infratuzilma qurilishi, xalqaro hamkorlik, pedagoglar nufuzini oshirish, ta’lim sifati ko‘tarilishidek muhim qadamlar tashlandi. Zamon talablariga monand sinfonalar, laboratoriya jihozlarini ko‘rib havasingiz keladi. Barcha maktabga kuzatuv kameralari o‘rnatilib, optik tolali internet tarmog‘igacha yetib boryapti.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasida ta’lim tizimi islohotlari ustuvor yo‘nalishlardan biri etib belgilangan. 2030-yilga qadar nodavlat maktablarning sonini ham 1000 taga yetkazish rejalashtirilgan. Zero, hozir 2000 ta maktab yuqori yuklama bilan ishlayapti. Bir sinfdagi o‘quvchi soni 35 nafar etib belgilangan bo‘lsa, ko‘plab sinflarda 40 nafargacha bola o‘qiyapti. 1 million 200 ming o‘quvchi o‘rni yetishmayotgani statistik ma’lumotlarda aytiladi. Chunonchi, aholi tobora o‘tib borar ekan, maktablarga ehtiyoj ham ortaveradi. Bu yil 112 mingga yangi o‘quvchi o‘rni ochish uchun Islom taraqqiyot bankidan 200 million dollar jalb etilib, hududlarda 58 ta zamonaviy maktab qurilishi rejalashtirilgan. Xususiy maktablar soni ko‘payib borayotgani ham muammoni bir oz yengillashtiradi.

O‘tgan yili ham 43 ta yangi maktab qurildi. 800 dan ziyodi ta’mirlandi. 115 ta nodavlat maktab tashkil etilishi natijasida ularning umumiy soni 573 taga yetdi. 2025-yilda yana 100 ta shu kabi yangi xususiy maktablar tashkil etilishi va qo‘shimcha o‘quvchi o‘rni ochilishi ko‘zda tutilgan. 2030-yilgacha barcha maktabning moddiy-texnik bazasini yetarli darajada yangilash, o‘qituvchilar salohiyatini oshirish dolzarb vazifa etib belgilangan. Binobarin, ta’limning sifati faqat zamonaviy binolarga emas, bir nechta omilga bog‘liq. Dasturlar, darsliklar, o‘qituvchilar metodikasi, pedagogik mahorati kabilar o‘qitish sifatiga ta’sir etadigan muhim jihatlardir.

Ko‘rkam binolarda olingan ta’limning sifati ham, natijasi a’lo bo‘lsa qanday yaxshi! Buning uchun pedagoglar armiyasi kurashadi. Ayni paytda yurtimizda 540 mingga yaqin o‘qituvchi faoliyat yuritaypti. Ularning qariyb 473 mingi oliy ma’lumotli. Davlatimiz rahbari yurtimizda 15 ta davlatga tegishli va 61 ta nodavlat OTMning pedagogika yo‘nalishidagi ilmiy salohiyati atigi 40 foiz atrofida ekanini achinish bilan tilga oldi. Shu bois, Toshkent davlat pedagogika universiteti transformatsiya qilindi, O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti tashkil etildi. Endi mazkur universitet barcha hududdagi pedagogika institutlari uchun tayanch oliygohga aylanadi.

Yangi avlod o‘qituvchilari shu yerda shakllanadi. Binobarin, avvalgiday maktabga tasodifan borib qolganlarga ham birdan o‘qituvchi maqomi berilmayapti. Pedagog nomini olish uchun bir yil bilimini ko‘rsata olish, tegishli sertifikatga ega bo‘lish talab etila boshladi. Bunga har joyda birdek, vijdonan amal qilinsa, bo‘lg‘usi o‘qituvchilar o‘z oldiga yetuk pedagoglikka intilishdek sharaflari vazifani qo‘yadi.

Umuman olganda, bugun chinakam o‘z ustida ishlayotgan, toifa olish uchun kerak bo‘lsa, tunni kunga ulagan o‘qituvchining ishi “besh”. Agar u xalqaro akkreditatsiyadan o‘tkazilgan tizimdagi toifaga ega bo‘lsa, 70 foiz ustama oladi. Birgina Surxondaryo viloyatida 11 o‘qituvchi 2000 dollardan maosh olayotgani buning amaldagi ko‘rinishidir. Boshqa hududlarda ham bu kabi pedagoglar ko‘plab topiladi. Olish hududlardagi maktablarga borib dars berayotgan muallim oyligiga 100 foiz ustama olish imkoni ham, bu tajribaning o‘zi ham avval bo‘lmagan.

Maktablarni ranglarga ajratib, “qizil” toifadagilariga eng tajribali, yetuk o‘qituvchilarni jalb qilish amaliyoti ham bugun natija berayotgan ezigu ishlardan. Aslida, bugun hamma o‘qituvchida katta imkoniyat, sharoit bor, cheklov yo‘q.

O‘qituvchilarning xorijda malaka oshirishiga ham alohida e’tibor qaratilyapti. Jumladan, o‘tgan yili 142 pedagog chet elga malaka oshirishga borgan bo‘lsa, joriy yilda 100, 2030-yilga borib, 1000 nafar tarbiyachi va o‘qituvchini xorijga malaka oshirishga yuborish rejalashtirilgan. Bu yurtimiz ta’lim tizimiga xorij tajribasini kengroq olib kirib, joriy etishga xizmat qiladi. Chunki ilg‘or xorijiy tajriba o‘quvchilarning darslarga qiziqishini, o‘qituvchilarning esa faolligini oshiradi. O‘z ustida tinmay ishlab, izlanib turgan muallimdan ta’lim olgan bolalarning ko‘rsatkichi ham yuqori bo‘ladi. Bizga aynan shu kerak.

Bugun o‘quvchi bilimini baholashning yangi usullari kirib kelyapti. Albatta, har qanday yangi tajriba avvalida o‘ziga yarasha qiyinchilik bo‘ladi. Soha yetakchilaridan biri aytganidek, shu vaqtga qadar bolalar bilimini aniqlash bo‘yicha aniq mexanizm bo‘lmagan. Ya’ni maktab davlat ta’lim standart bo‘yicha bilim berdimi-yo‘qmi degan savolga tayinli javob yo‘q edi. Maktab o‘quvchilari va bitiruvchilarning bilimini xolisona baholash tizimi endi yaratilmoqda. 2022-yilda o‘quvchilarning birinchi bor PISA taqdiqotlarida qatnashdi. Kutilganidek natija qayd etilmadi. Sababi, o‘quvchilar funksional savodxonligini amalda ko‘rsata olish qobiliyati



yetishmadi. Biroq asta-sekin ko‘rsatkichlarimiz yaxshilanyapti. Bu yil 233 ta maktabdagi 9 ming nafar 15 yoshli o‘quvchining bilimi PISA xalqaro dasturi orqali baholandi. O‘ylaymizki, o‘quvchilarimiz uch yil ichida bu tizimga nechog‘liq moslashib, ko‘nikmalari qanchalik shakllanganini amalda namoyon etdi. 2026-yilda e’lon qilinadigan taqdiqot natijalarida yaxshi natijalar qayd etishimiz kutilmoqda.

Shu o‘rinda PISA xalqaro dasturi asoschisining O‘zbekistonga kelgan chog‘i aytgan quyidagi fikrlari ko‘nglimizni ko‘taradi: “Avvalo, sizlarga havasim kelgan jihat — bu davlat rahbari ta’limga e’tibor berayotgani, ya’ni o‘qishni birinchi o‘ringa qo‘yayotgani. Hamma davlatda ham bunday bo‘lmaydi. Bundan foydalanish kerak. 2018-yildagiga solishtirganida bolalarda tanqidiy, kreativ fikrlash paydo bo‘libdi”.

Keyingi paytlarda yo‘lga qo‘yilgan “Kasbiy rivojlanish kuni” va “Kasbiy rivojlanish soati”da o‘qituvchilarga zamonaviy darsliklardan foydalanish, o‘quvchiga yetkazib berish ko‘nikmalari o‘rgatilyapti. Bularning barchasi avval ustozlarni tayyorlab, keyin sifatlari talab qilish kerak degan asosli fikrga hamohang sa’y-harakat ekan bilan ahamiyatli.

Chindan ham tarbiya beruvchining o‘zi tarbiyali, ta’lim beruvchining o‘zi ilmiy

bo‘lmog‘i shart. Buning uchun soha vakillariga barcha sharoit muhayyo. Prezidentimizning tegishli qarori bilan xalq ta’limi xodimlarini xizmat majburiyati bilan bog‘liq bo‘lmagan ishlar, majburiy mehnat, jumladan, tuman va shaharlar hududlarini obodonlashtirish hamda ko‘kalamzorlashtirish ishlari, mavsumiy qishloq xo‘jaligi ishlari hamda boshqa turdagi yumushlarga jalb qilish taqiqlangan. Shunga qaramay, ayrim pedagoglarning hamon o‘z ustida ishlamayotgani, ta’lim sifati yaxshilashga hissa qo‘shmayotgani taqiqlangan yumushlar sifat pastlashining asosiy omili emasligini ko‘rsataypti. Vaholanki, hozir, yuqorida aytganimizdek, “Kasbiy rivojlanish kuni”, “Kasbiy rivojlanish soati”larigacha tashkil qilinaypti, turli platformalar, o‘z ustida ishlashning ko‘plab yo‘llari o‘ylab topilyapti. Eskicha ish uslubida qotib qolmagan har qaysi o‘qituvchi bugun ulardan unumli foydalanishi kerakligini chuqur his qiladi.

Ijtimoiy himoyanang har qachongidan kuchaygani esa inklyuziv ta’limda ham ko‘plab fidoyi, mahoratli pedagoglarga ehtiyoj katta ekanini ko‘rsataypti. Prezidentimizning 2020-yil 13-oktabrdagi “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bilan 2020-2025-yillar

uchun xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi va uni amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi”, shuningdek, alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar ta’limini 2025-yilgacha rivojlantirishning maqsadli ko‘rsatkichlari (indikatorlari) tasdiqlandi. 2021/2022-o‘quv yilidan boshlab, inklyuziv ta’lim tizimi joriy etilgan umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlarining rahbarlari, psixologlar va pedagog xodimlari uchun onlayn shaklda har yili avgustda 72 soatlik maqsadli malaka oshirish o‘quv kurslari mustazam tashkil etib kelinmoqda. Buning samarasi o‘laroq, maktablardagi inklyuziv sinflarda ta’lim olayotgan bolalar o‘zini avvalgidek jamiyatga begona emas, aksincha kerakli inson sifatida his qilyapti. Umumiy qilib aytganda, bugun ta’lim olish uchun teng imkoniyatni ta’minlash va barcha bolalarning individual xususiyatlaridan, yutuqlaridan, till, madaniyati, ota-onalarning ijtimoiy va iqtisodiy holatidan qat’i nazar, ta’limda muvaffaqiyatga erishishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish inklyuziv ta’lim tizimini rivojlantirishning bosh maqsadiga aylanaypti. Bu esa mamlakatning asosiy tayanch sohasi bo‘lgan ta’lim yo‘nalishida o‘sayotganimiz, zamon talablariga javob bera boshlaganimizni ko‘rsatadi.

Ha, bugun bolalarimizda ilm olishga istak bo‘lsa, bas. Qolgan barchasini davlat, ota-

onalar o‘z bo‘yniga olyapti. Farzandlarimizni ma’nan, barkamol etib tarbiyalash maqsadida ham ta’lim tizimida qator yangiliklar, zamonaviy metodlar qo‘llanyapti. Xususan, o‘quvchilar bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishi uchun “Barkamol avlod” maktablari, sport majmualari faoliyat yuritaypti. Xorijiy tillar, sun’iy intellekt, dasturlash va animatsiya kabi yangi to‘garaklar ochildi. O‘quvchilar o‘rtasida turizmni rivojlantirish bo‘yicha ham yangi tizim yaratilyapti. Qoraqalpog‘iston, Xorazm, Samarqand, Buxoro va poytaxtdagi “Barkamol avlod” maktablarida kamida 100 o‘rinli “Bolalar sayyohlik bazasi” tashkil qilinishi, har yili 1 million o‘quvchi uchun O‘zbekiston bo‘ylab sayohatlar uyushtirilishi bugunga xos sa’y-harakatlardir. Muzeilar, teatrlar bilan doimiy hamkorlik o‘rnatilib, yoshlarimiz nomoddiy madaniy meroslarimiz, bebaho san’at asarlarimiz bilan keng tanishtirib borilyapti. Joriy yildan esa yozgi ta’til paytida ham o‘quvchilarning mazmunli dam olishini ta’minlaydigan tizim amalga oshirildi. “Dolzarb 90 kun” loyihasi asosida o‘quvchilar turli to‘garaklardan tashqari, o‘zlari yaratgan ijod namunalari turfa tanlovlar orqali namoyish etish imkoniga ham ega bo‘ldi. “Dolzarb 90 kun” tadbirlariga Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimidagi 1251 ta umumta’lim maktabida kunduzgi oromgohlar faoliyati yo‘lga qo‘yilib, 173 ming nafar o‘quvchi bepul jalb qilindi. Loyihani amalga oshirishda ta’limdagi foydalanish imkoniyatidan mahrum etilmadi. Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 26-iyundagi “Pedagog xodimlari uchun yillik uzaytirilgan mehnat ta’tili davomiyligi me’yorlarini belgilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bilan umumta’lim maktablari pedagog xodimlari uchun 56 kalendar kunidan iborat mehnat ta’tili muddati belgilangan. Respublikadagi barcha umumta’lim maktablari pedagoglarining yozgi ta’til davrida mehnat ta’tiliga chiqishi uchun tegishli reja-grafik tasdiqlangan. Mazkur rejaqa asosan pedagoglarning belgilangan kunlarda mehnat ta’tiliga to‘liq chiqishi ta’minlanadi. Bularning barchasi ta’lim uchun har qancha mablag‘ni ayamaslik kerakligi, eng yaxshi investitsiya ta’limga kiritilgan investitsiya ekanining amaldagi ifodasi bo‘lyapti.

Xalqimiz — bolajon. Farzandimizdan ko‘nglimiz to‘q bo‘lsagina xotirimiz jam, ishimizda unum bo‘ladi. Shu ma’noda, ishlab chiqilgan “Xavfsiz maktab” konsepsiyasi bilan, birinchi navbatda, begona shaxslar maktabga kirishining oldi olinadi. Bu esa o‘qituvchi va o‘quvchini kutilmagan xurujlardan saqlaydi. Barcha maktabda “tashvish” tugmasi o‘rnatilgan, o‘quv binolari videokuzatuv kameralari bilan jihozlangan. Maktablar yonida qurilish ishlari ketayotgan obyektlar ham nazoratda. Zero, bunday joylar jinoyatchilar uchun qulay manzil bo‘lishi mumkin. Bugun istalgan umumta’lim maktabga borib, xavfsizlik tugmasini bosing. Milliy gvardiya xodimlari uzog‘i bilan 5 daqiqada yetib keladi. Demak, xavotirga o‘rin yo‘q. Bor salohiyatimizni ta’limni taraqqiy ettirish, farzandlarimizning yetarlicha bilim olishi va jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashga olishiga sarflashimiz zarur.

Munojat MO‘MINOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

MIRODIL SINFDOSHLARI SAFIGA QAYTDI UNGA YURT MEHRI, ADOLATLI TIZIM QANOT BAG‘ISHLADI

Qahramonimiz maktabning to‘qqizinchi sinfini bitirish arafasida kutilmaganda falokat oqibatida bir oyog‘idan ayrildi. Uning orzulari bishyor edi. Mukammal bilim olib, kelajakda o‘zi niyat qilgan kasbda yetakchi bo‘lishni istardi. Qolaversa, bir necha yildan beri milliy kurash bilan shug‘ullaniib, yaxshigina natijalarga erishgandi. Maydonga chiqqanida har qanday raqibni chekinishga majbur etadigan shijoati bor edi.



Afsus, taqdir bitigini oldindan o‘qib bo‘lmas ekan. Achechiq qismat uni ancha tushkunlikka tushirib qo‘ydi. Ota-onasi va boshqalar qancha urinmasin, baribir qahramonimizning ko‘nglini ko‘tarishni uddalay olishmadi. Yosh polvon ko‘ngli o‘ksir, ayniqsa, tengdoshlari maktabga ketayotganini ko‘rib yuragi ezilardi. “Endi bir umr yurolmaydigan, nogiron bo‘lib, uyda o‘tirib qolamanmi?” degan savol uni qiynardi. Gohida tashqariga chiqib, ko‘chalarni kezishni xohlar, ammo bu imkonsiz ekanini anglab jim qolardi. Tag’in shu holatda ko‘pchilikka ko‘rinishni xohlamasdi. To‘qqizinchi sinfni bir amallab bitirdi-ku, ammo 10-sinfga o‘tgach, yangi o‘quv yilida maktabga qanday borishini tasavvur qila olmasdi.

G‘uzor tumanidagi Yakkadaraxat mahallasida yashaydigan Mirodilga hayotning bu alamli sinovini yengib o‘tish oson bo‘lmadi. Maktabga borishga imkon

yo‘q. Bilim olish ishtiyoqi esa baland. O‘qituvchilariga iltimos qilib ko‘rdi. Ularning ko‘magi bilan uyda ta’lim olish yo‘lga qo‘yildi. Lekin sinfdoshlar davrasida darsda qatnashishning gashiti boshqacha. Ammo na iloj, o‘tgan o‘quv yilini shu tarzda yakunladi.

Kunlarning birida mahallaning ijtimoiy xodimi yo‘qlab keldi. Mirodil bilan dildan subhatlashdi. Uning ko‘nglini ko‘targan bo‘ldi. Qanday ehtiyoj borligiga qiziqdi. Yosh yigitchaning istagi esa imkoni bo‘lsa tengdoshlari qatoriga qaytish edi. Buning uchun protez yo‘q kerakligini aytdi. O‘zlari olishiga imkoniyati yetmasligini bildirdi. Ijtimoiy xodim, albatta, yordam qilishini aytganida, unchalik ishonmadi. “Shunchaki ko‘ngil uchun aytib ko‘ydi-da”, deb o‘yladi.

Ko‘p o‘tmay unga protez o‘rnatish uchun shifoxonaga yo‘llanma berildi. Bundan Mirodil cheksiz quvondi. Kuchli hayajonini yashirishga harakat qilar,

lekin bu yuzidagi tabassumdan sezilib turardi. Bir oz ko‘rquv bilan mutaxassislar oldiga kirib borarkan, xushmuomalalikni ko‘rib ancha xotirjam bo‘ldi. Mutaxassislar ko‘p kuttirmay unga yordam berdi. U ilk qadamni tashlab ko‘rarkan, quvonchi ichiga sig‘masdi. Ko‘rsatilgan mehr va muhruvatdan ko‘ksi tog‘dek yuksaldi. Kuni kecha yana sinfdoshlari qatori maktabga bordi. Bu uning uchun katta bayram bo‘ldi.

— Uch yildan beri sport to‘garagiga qatnab keldim, — deydi Mirodil Abdunazarov. — Kurashni yaxshi ko‘raman. Vaznim bo‘yicha barcha raqiblarimdan ustun bo‘lib kelganman. Ammo kutilmaganda oyog‘imdan ayrilib qoldim. Bu yo‘qotishni so‘z bilan ifodalash qiyin. Doim endi nima qilaman, degan xayolda yurardim. O‘rtog‘larim kelib qancha dalda bersa-da, baribir bu tushkun ahvoldan chiqishim qiyin edi. Uyimizga mahallamizning ijtimoiy xodimi kelgach, hayotim o‘zgardi. Quvonarlisi, yangi o‘quv yili boshidan maktabga o‘rtog‘larim bilan kelishim bo‘ldi. Buning uchun menga yordam berganlarga rahmat. Ancha vaqtgacha uyda yotib qoldim. O‘sha kunlar ortda qoldi, endi o‘qishni boshlab oldim. Tez orada paralimpiada sport turlari bilan shug‘ullanishni boshlayman. Ustozlarimning aytishicha, endi sport musobaqalarida ishtirok etib, g‘olib bo‘lishim mumkin ekan. Demak, oldimdagi maqsadlarimga erishishga yana imkon yaratildi.

Ijtimoiy himoya milliy agentligi Qashqadaryo viloyati boshqarmasi mas’ullarining bildirishicha, ijtimoiy xodimlar faoliyat boshlagach, muammolar mahallaning o‘zida hal etilmoqda. Bu o‘z-o‘zidan fuqarolarning hayotdan rozi bo‘lib, ertangi kunga ishonch bilan yashashiga zamin yaratmoqda.

— Joriy yil boshidan buyon hozirga qadar ijtimoiy xodimlar faolligi sabab qator masalalar hal etildi, — deydi Ijtimoiy himoya milliy agentligi Qashqadaryo viloyati boshqarmasi mas’ul xodimi Dilshod Shodiyev. — Misol uchun, o‘tgan 8 oy davomida viloyat bo‘yicha nogironligi bo‘lgan va keksa yoshdagi, ijtimoiy himoyaga muhtoj jami 7536 kishi reabilitatsiya vositalari va protez-ortopediya moslamalari bilan ta’minlandi. Bundan uchto‘rt yil oldingi raqamlar bilan solishtirilganda, anchagina katta farqni ko‘rish mumkin.

Bu ko‘rsatkichlar keyingi yillarda imkoniyati cheklangan shaxslarning ijtimoiylashuvi oshayotganidan dalolat.

Akbar RAHMONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

O‘ZJOKU – INSONLAR VA BILIMLAR UCHRASHADIGAN MASKAN

Yangi o‘quv yili xalqimiz uchun eng qutlug‘ sana — Mustaqillik bayrami bilan uyg‘un holda boshlandi. Bu uyg‘unlik, aslida, Vatan taqdiri va kelajagi o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik timsolidir. Maktablar, oliy o‘quv yurtlarining obod qiyofasi, zamon talabiga mos jihozlanishi, o‘quvchi va ustozlarning yutuqlariga yangi O‘zbekiston taraqqiyotining eng muhim poydevori sifatida qaramoqda. Shuning uchun ham bir qo‘ng‘iroq sadosi nafaqat dars boshlanishini, balki mamlakat kelajagiga yo‘l ochilishini ifodalaydi.



Davlatimiz rahbarining Bilimlar kuni munosabati bilan yo‘llagan tabrigida maktab “mo‘jiza”, har bir dars esa “beqiyos xazina” sifatida ta’riflandi. Bu ifoda, avvalo, ta’limning jamiyat hayotidagi beqiyos o‘rnini ko‘rsatadi. Zero, ta’lim dargohlaridagi har bir kichik yutuq keyninchalik mamlakat taraqqiyotining katta qadamlariga aylanishi tabiiy. Shu ma’noda, O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetida yangi o‘quv yiliga “O‘zJOKU — insonlar va bilimlar uchrashadigan maskan” deb nom berilishi muassasaning mazkur

g‘oyalar bilan chambarchas uyg‘un qadam tashlayotganidan darak.

Ta’limni millat kelajagi sari ochilgan eshikka qiyoslasak, universitetning shiori shu eshikdan kirgan insonlar va bilimlarni bir-biri bilan uchrashitira oladigan zamonaviy maydonni anglatadi.

Bu o‘rinda ikki muhim jihat ko‘zga tashlanadi. Birinchisi — maktabdan universitetgacha bo‘lgan uzluksizlik tamoyili. Bu yil 720 mingdan ortiq bola ilk bor maktab ostonasiga qadam qo‘ydi. Ular uchun maktab — ilk mo‘jiza. Mo‘jiza yo‘li universitetda davom etadi. Bunda O‘zJOKU o‘zini nafaqat bilim berish muassasasi,

shuningdek, insonlar o‘zaro muloqotda, fikr almashuvda, yaratuvchanlikda uchrashadigan maskan sifatida namoyon qilmoqda.

Ikkinchisi — ta’limning ma’naviy qiymati. Ta’lim-tarbiya bilim, ma’naviyat, mehr-muhabbat va hurmat kabi qadriyatlar bilan uyg‘un jarayon. Universitetning ustuvor yo‘nalishlari: gumanistik yondashuv, fanlarga aloqalar, innovation ta’lim dasturlari va shaxsiy rivojlanish uchun imkoniyat yaratish aynan shu ma’naviy asoslarga tayangan holda joriy etilyapti.

Universitetda har o‘quv yiliga nom berish an’anaga aylangan. Bu tashabbus respublika oliy ta’lim muassasalari orasida birinchi bor mazkur o‘quv dargohi tomonidan ilgari surilgan.

Joriy yilgi shior zamirida universitetning keng qamrovli strategiyasi mujassam. Bu yerda hamfikrlar hamjamiyati shakllanadi, insonparvarlik va gumanitar yondashuv ta’lim jarayonining markaziga qo‘yiladi. Shu bilan birga, fanlarga aloqalar rivojlantirilib, turli fanlar kesishuvidan yangi g‘oyalar va kashfiyotlar vujudga keladi.

Innovation ta’lim dasturlari va zamonaviy loyihalar talabalarning kelajakka tayyorgarligini kuchaytiradi, shaxsiy rivojlanish uchun zarur sharoitlar esa har bir yoshning individual salohiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Universitetda ilm-fan va amaliyot uyg‘unligiga katta e’tibor qaratilmoqda. Nazariya hayot bilan bog‘lanib, talabalar bilim olish bilan birga amaliy ko‘nikmalarini oshirgan holda jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘shuvchi ijodkor shaxsaga aylanadi.

Universitet bugun talaba va ustozlar hamkorligida yangi g‘oyalar tug‘iladigan, ijodiy kuch uyg‘onadigan, jamiyatga ta’sir etadigan makonga aylanmoqda. Shu ma’noda, muassasa o‘z oldiga qo‘ygan ustuvor yo‘nalishlari bilan mamlakatimizda erkin fikrlovchi, yangilikka intiluvchan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq avlodni tarbiyalashdek buyuk vazifani ado etmoqda.

Asliddin ABDURAZZOQOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

O'zA yakuni — 21:25